

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Samarqand viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1-yanvar holatiga 3798,7 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 78,6 ming kishiga yoki 2,1 % o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1413,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,2 %), qishloq aholisi soni 2384,8 ming kishini (62,8 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **78,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **98,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- **16,3 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **37,5 mingta nikoh** va **3,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Samarqand viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida)

Tirik tug'ilganlar
98,7 ming bola

Tabiiy o'sish
82,4
ming kishi

Vafot etganlar
16,3 ming kishi


Aholining
umumiyo'sishi
78,6
ming kishi

Ko'chib kelganlar
11,9 ming kishi

Mexanik o'sish
(kamayish)
-3,8 ming kishi

Ko'chib ketganlar
15,7 ming kishi

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahrida 538,2 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,2 %), Urgut tumanida 494,5 ming kishini (13,0 %), Pastdarg'om tumanida 346,0 ming kishini (9,1 %) va Kattaqo'rg'on tumanida 267,0 ming kishini (7,0 %), aksincha eng kam aholi soni Kattaqo'rg'on shahrida 88,0 ming kishi (2,3 %), Qo'shrabot tumanida 128,2 ming kishi (3,4 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Jomboy va Urgut tumanlarida 2,7 %ni, Ishtixon va Payariq tumanlarida 2,3%ni, Bulung'ur, Qo'shrabot va Nurobod tumanlarida 2,2%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Oqdaryo va Narpay tumanarida 1,8%ni, Samarqand shahrida 1,6%ni va Kattaqo'rg'on shahrida 1,3 %ni tashkil etdi.

Demografik holat


Hududlar kesimida doimiy aholi sonining erkak va ayollarga bo`linishi

(2019 yil 1-yanvar holatiga, ming kishi, dastlabki ma`lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo`linishi

(2019 yil 1-yanvar holatiga, ming kishi, dastlabki ma`lumot)



Demografik holat


Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 98,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,2 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,8 promillega oshgan (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 24,4 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Payariq tumanida (28,4 promilledan 31,1 promillega), Urgut (28,7 promilledan 31,3 promillega) va Ishtixon (25,9 promilledan 28,3 promillega) tumanlarida sezilarli o'sgani kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni taqsimlanishi (2018 yil yanvar-dekabr)



**Tuman va shaharlar bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi
(yanvar-dekabr)**

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati % da
Samarqand viloyati	89 956	98 675	109,7
Samarqand sh	9 784	10 788	110,3
Kattaqo'rg'on sh	1 941	2 132	109,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	3 622	3 876	107,0
Bulung'ur	4 453	4 917	110,4
Jomboy	4 543	4 897	107,8
Ishtixon	6 197	6 940	112,0
Kattaqo'rg'on	6 175	6 629	107,4
Qo'shrabot	3 295	3 648	110,7
Narpay	4 272	4 589	107,4
Payariq	6 724	7 501	111,6
Pastdarg'om	8 081	8 838	109,4
Paxtachi	3 428	3 701	108,0
Samarqand	5 586	5 895	105,5
Nurobod	3 693	4 014	108,7
Urgut	13 657	15 301	112,0
Tayloq	4 505	5 009	111,2

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 16,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 4,5 promille bo'lgan).


O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Bulung'ur tumanida (4,4 promilledan 4,6 promillega), Ishtixon tumanida (3,9 promilledan 4,0 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Samarqand shahrida (5,5 promilledan 4,9 promillega), Jomboy tumanida (4,8 promilledan 4,4 promillega), Payariq tumanida (5,0 promilledan 4,6 promillega) va Samarqand (5,1 promilledan 4,7 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar: 9,0 ming kishi **Ayollar:** 7,3 ming kishi

Hududlar kesimida o`lganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)



**Tumanlar va shaharlar bo'yicha vafot etganlar soni yanvar-dekabr
(kishi)**


	2017 yil		2018 yil	
	Vafot etganlar soni	1000 aholiga nisbatan (promille)	Vafot etganlar soni	1000 aholiga nisbatan (promille)
Samarqand viloyat	16 661	4,5	16 261	4,3
Samarqand sh.	2 872	5,5	2 607	4,9
Kattaqo'rg'on sh.	488	5,6	478	5,5
tumanlar:				
Oqdaryo	644	4,3	630	4,1
Bulung'ur	781	4,4	839	4,6
Jomboy	767	4,8	722	4,4
Ishtixon	930	3,9	971	4,0
Kattaqo'rg'on	973	3,8	1 012	3,8
Qo'shrabot	565	4,5	553	4,4
Payariq	1 185	5,0	1 109	4,6
Pastdarg'om	1 485	4,4	1 417	4,1
Paxtachi	665	4,8	663	4,7
Samarqand	5 586	5,1	1 139	4,7
Narpay	4 272	4,2	857	4,1
Nurobod	602	4,2	626	4,3
Tayloq	791	4,2	786	4,1
Urgut	1 837	3,9	1 852	3,8

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,7 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,7 % o'simtalardan, 6,7 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,2 % ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,9 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 % yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,2 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 706 nafarni tashkil etib, ularning 67,0 % perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 13,5 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 10,2 % tug'ma anomaliyalardan, 4,1 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,4 % yuqumli va parazitar kasalliklardan, 3,8 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lom sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-dekabr

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 82,4 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 9,3 ming kishiga (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 73,1 ming kishi bo'lgan) o'sgan.




Tabiiy o'sish:
82,4 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 37,5 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 10,0 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahrida (0,3 %) va Samarqand tumanida (0,5 %) aksincha kamayish Nurobod tumanida (1,7 %), Tayloq tumanida (0,9 %), Payariq va Qo'shrabot tumanlarida (0,8 %), Pastdarg'om va Urgut tumanlarida (0,7 %), Jomboy va Narpay (0,6%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni taqsimlanishi (2018 yil yanvar-dekabr)




Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 3,7 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Payariq (0,2 %), Ishtixon (0,1 %), Pastdarg'om (0,1 %), tumanlariga va aksincha kamayish Samarqand shahrida (0,5 %), Buluhg'ur va Tayloq (0,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Demografik holat

Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)



Tuman va shaharlar bo'yicha tuzilgan nikohlar soni yanvar-dekabr (birlik)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati % da	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati % da
Samarqand viloyat	38 307	37 494	97,9	4 007	3 731	93,1
Samarqand sh.	4 089	4 279	104,6	1 157	894	77,3
Kattaqo'rg'on sh.	841	849	101,0	150	159	106,0
tumanlar:						
Oqdaryo	1 646	1 629	99,0	136	135	99,3
Bulung'ur	1 969	1 927	97,9	186	143	76,9
Jomboy	1 860	1 811	97,4	157	163	103,8
Ishtixon	2 766	2 839	102,6	236	235	99,6
Kattaqo'rg'on	2 717	2 666	98,1	234	210	89,7
Qo'shrabot	1 361	1 294	95,1	80	81	101,3
Payariq	2 878	2 760	95,9	180	229	127,2
Pastdarg'om	3 656	3 499	95,7	280	303	108,2
Paxtachi	1 595	1 502	94,2	117	104	88,9
Samarqand	2 204	2 357	106,9	376	373	99,2
Narpay	1 966	1 889	96,1	151	170	112,6
Nurobod	1 525	1 309	85,8	78	88	112,8
Tayloq	2 115	1 969	93,1	171	145	84,8
Urgut	5 119	4 915	96,0	318	299	94,0

Migratsiya. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 11,9 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 15,6 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 3,8 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida esa minus 5,5 ming kishi bo'lган.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	10,3	11,9
Ko'chib ketganlar	15,5	15,6
Migratsiya saldosi	-5,5	-3,8

Ko'chib kelganlar: Ko'chib kelganlar soni Kattaqo'rg'on shahri (0,2 ming kishi), Payariq (0,4 ming kishi), Oqdaryo (0,2 ming kishi) va Urgut (0,5 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Ko'chib ketganlar: Ko'chib ketganlar soni Kattaqo'rg'on shahri (3,0 ming kishi), Payariq (1,3 ming kishi), Oqdaryo (0,6 ming kishi) va Urgut (1,1 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosi: yuqori darajasi Kattaqo'rg'on shahrida (minus 0,5 ming kishi), Payariq tumanida (minus 0,9 ming kishi) Oqdaryo tumanida (minus 0,4 ming kishi), Urgut tumanida (minus 0,6 ming kishi) qayd etildi.

